

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHPUKATOV INOYAT SAPAROVICH**

**FAROBIIY, IBN SINO VA IMOM G‘AZZOLIYLARNING  
“KOMIL INSON” TA’LIMOTI (KONSEPSIYASI)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Eshpulatov Inoyat Saparovich**

Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliylarning “Komil inson”  
ta’limoti (konsepsiyasi) ..... 5

**Эшпулатов Иноят Сапарович**

Учение (концепция) о “совершенном человеке” Фараби, Ибн Сины и Имама  
Газали ..... 23

**Eshpulatov Inoyat Saparovich**

Teaching (concept) of “perfect man” of Farabi, Ibn Sina and Imam Ghazali ..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHPULATOV INOYAT SAPAROVICH**

**FAROBIY, IBN SINO VA IMOM G‘AZZOLIYLARNING  
“KOMIL INSON” TA’LIMOTI (KONSEPSIYASI)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal674 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muzaffarov Firuz Davronovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Sharipova Oygul Tursunovna**  
falsafa fanlar doktori, dotsent

**Qodirov Muhammadjon**  
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “11” 01 soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, ye-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (410 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “29” dekabr kuni tarqatildi.

(2023 yil “29” dekabr dagi 30 raqamli reestr bayonnomasi.)



**Navro‘zova G. N.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A. Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori, professor

**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,

falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahonda insoniyat tamadduni yangi bosqichga ko'tarilib, sifatiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bir davrda Sharq falsafiy merosining jahon halqlari ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi vazifasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo hamjamiyatida yoshlarni ma'naviy-axloqiy g'oyalar orqali umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan pozitiv munosabatini mustahkamlashga, xususan, axloq, tarbiya, o'zaro muloqot, madaniyat va din sohalarida dunyoqarashini, shakllantirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, falsafiy tafakkur tarixiga salmoqli hissa qo'shgan Farobiy, Ibn Sino va G'azzoliy ta'limotlaridagi kamolot bosqichlari, fanlar tasnifi va uning inson kamolotiga ta'siri, insonning o'z-o'zini anglash strukturasi, komil inson g'oyasini tahlil qilish globallashuv jarayonida keng ildiz otgan "egoizm", "axloqiy buzuvchilik", "ksenofobiya" kabi illatlarga qarshi kurashishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ilm-fanida Sharq mutafakkirlarning ma'naviy merosini o'rganish, islom sivilizatsiyasi rivojiga ta'sir o'tkazgan allomalarning ta'limotlarini, ma'naviy transformatsiya va modernizatsiya jarayonida egotsentrizm, ma'naviy qashshoqlik, moddiyatparastlik, oilaviy qadriyatlarning yemirilishi, milliy an'ana va urf-odatlarining inkor etilishi kabi illatlarga qarshi kurashga doir fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu bugungi kun madaniy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, umuminsoniy falsafiy an'analarni saqlab qolish uchun postgumanistik mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Jumladan, Farobiy, Ibn Sino va G'azzoliy asarlaridagi komil inson tarbiyasi, go'zal insoniy fazilatlar, aql va muhabbat uyg'unligi, ijtimoiy borliqda tinchlik, ahillik, xotirjamlik, totuvlikni ta'minlash masalalariga oid qarashlarni tizimli tahlil qilish va shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni zaruratini taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makonni barpo etish, ma'rifatli jamiyat qurishda islom madaniyatining falsafiy, ma'naviy va ilmiy merosi, umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan mutafakkirlarning qarashlarini hayotga tadbiiq etishga oid strategik dasturlar izchillik bilan olib borilmoqda. "...jamiyatda poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi o'ziga xos "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelingan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan"<sup>1</sup>. Shuning uchun Farobiyning inson tabiati, uning hayot mazmunini, olamdagi o'rnini, jamiyatdagi rolga oid, Ibn Sinoning shaxs axloqiy kamolotida kamtarlik, jasorat, shahvat, g'azabni tarbiyalash va nifoqni yengish kabi g'oyalarini, Imom G'azzoliyning mujohada, muroqaba, yaqiyn, shikasta-nafslik, pok qalb, basirat va fahm-idrok kabi komil inson fazilatlarini o'z ichiga olgan qarashlarining falsafiy jihatlarni ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б. 420

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon ilm-fanida Farobiyning islom dini bilan bog‘liq falsafiy merosini atroflicha tadqiq qilganlar M.Shteynshnayder, Madkur Ibrohim, R.Hammond, Nihat Keklik<sup>2</sup>, Ibn Sinoning ilmiy merosini, uning ontologik ta’limotini tizimli o‘rganish muhim metodologik masala ekanligi to‘g‘risida ilmiy xulosalar M. Guashon, Sh.Osman va V.Karra<sup>3</sup> tadqiqot ishlarida, shuningdek, Imom G‘azzoliyning falsafiy-tasavvufiy ta’limoti, axloqiy qarashlari, siyosiy, fiqhiy merosi N.Reshar, E. Ormsbi, Ken Garden, M. Campanini, Mariya de Sillis, Skott Girdner, B. Barber, Iso Abdulloh Ali, Solih Ahmad ash-Shomiy, Abdulloh Muhammad al-Fallohiy, Mustafu Abusvay, Mesut Okumush hamda Simone Dario Nardella, Abdulla Kartal, Abdulla Akgul kabi olimlar tadqiqotlari mutafakkir ilmiy merosini o‘rganishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Steinschneider M. al-farabi des arabish Philosophen. – Jeiden, 1869; Madkaur Ibrahim. La placed’al-Farabi dans l’ecole philosophique musulmane. –Paris, 1934; Hammond R. The philosophy al-Farabi and its influence on mediaval thought. –New York, 1947; FNihat Keklik. Islam mantik tarihi ve Farabi mantigi. Istanbul. 1969-1970. Решар Н. The development of Arabic logic.-Питрепöypr, 1963.

<sup>3</sup> Goichon A.M. La distinction de l'essence et de l'existence d'après Ibn Sina (Avicenne). - Paris: Desclée de Brouwer, 1937. - 546 p.; Osman Chanine. Ontologie et théologie chez Avicenne. - Paris: Maisonneuve, 1962. - 184 p; Carra de Vaux. Avicenne (Les grands philosophes). - Paris: Felix Alcan, 1900.VII u. 302.

<sup>4</sup> Eric Ormsby. Ghazali: The Revival of Islam. - Oxford: Oneworld, 2008. 158 p.; Garden, Ken, The First Islamic Reviver: Abū Hāmid al-Ghazālī and his Revival of the Religious Sciences. - New York: Oxford University Press, 2014.; Campanini, Massimo: Al-Ghazali and the Divine, - London: Routledge, 2019.; De Cillis, Maria. The Discourse of Compromise: Theoretical Constructs of Free Will and Predestination in the Works of Avicenna, Ghazālī and Ibn ‘Arabī., - London, Routledge, 2014.; Scott Michael Girdner. “Reasoning with revelation: The significance of the Qur’anic contextualization of philosophy in Al-Ghazali’s “Mishkat Al-Anwar” (“The Niche of Lights”)", Boston University, 2010, - 725 p.; Barber, Brooks L. Poverty in al-Ghazali’s Ihyā’ ‘Ulūm al-Dīn, Catholic University of America, 2016, -335 p.; عيسى عبدالله علي. الفلسفة و التصوف في فكر ابي حامد الغزالي // DINIKA

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan A.Smirnov, A.Zakuev, M.Dinorshoev, A. Xismatulin, A. Ignatenko, A. Yeroxin, M. Janabi, U. Hisainov tadqiqotlarida mutafakkirning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari tadqiq etilib, uning shaxsiyati, hayoti haqida manbalarga tayangan holda muhim ma'lumotlar ilmiy hamjamiyatga taqdim etilgan<sup>5</sup>.

Mamlakatimizda M.Xayrullaev, M.Boltaev, G. Navro'zova, H. Salomova, M. Qodirov, R. Shodiev, S. Karimov, N. Safarova, F.Muzaffarov, O. Sharipova ilmiy tadqiqot ishlarida tasavvufiy nazariyalar, ularning falsafiy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan<sup>6</sup>.

Yuqorida qayd etilgan jahon olimlari va mamlakatimiz faylasuf-tadqiqotchilarining tadqiqotlarini yuksak ilmiy-amaliy qimmatini e'tirof etgan holda, ushbu dissertatsiyada Farobiy, Ibn Sino va Imom G'azzoliylarning komil inson haqidagi qarashlarini bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

Academic Journal of Islamic Studies Volume 2, Number 2, May - August 2017, - p. 247-284.; العقل. عبد الله محمد الفلاحي. الشامي صالح احمد. الامام; المتحافة بين الغزالي و كانت. رؤية نقدية مقارنة لليقين الترانسدنتالية. جامعة الاب، اليمن، الاستغراب، 2017. 74-57 ص  
الغزالي. حجة الاسلام و مجدد المئة الخميسة / الطبعة 1. دار القلم، دمشق، 1993. 264 ص  
Epistemology: Al-Ghazali. Kuala Lumpur: Dwan Bahas dan Pustaka, 1996; Mesut Okumus. "Gazzali'nin Kur'an Anlayisi ve Yorum Yöntemi", Doktora Tezi, Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Danisman: Prof. Dr. Halis Albayrak, 262 sayfa, Ankara 2000. Simone Dario Nardella. "Gazali ve Suhreverdi'de Tasavvufi Tecrübenin Önemi", 93 sayfa, Istanbul 2017; Kartal, Abdullah, "Tasavvufi Tecrübe Aktarılabilir mi?", Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, Bursa 2007, c. 16, sayı: 1, ss. 97-120.; Akgül, Abdullah. Kemâl Yolculuğu Olarak Dinî Tecrübe: Gazâlî Üzerinden Bir Okuma. Bilimname. 2019, Vol. 38 Issue 2, - p. 813-833.

<sup>5</sup> Смирнов А. Философская мысль исламского мира. Исследования Том-1. - Москва: 2009. - С.531. Закуев А.К. Абу Али ибн Сина (жизнь и деятельность). Труды института философии АН Азерб. ССР, Т II. Баку, 1964; Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе: Дониш, 1985. Хисматулин А.А. Сочинения имама ал-Газали. - Садр, Петербургское Востоковедение, 2017. 634-с.; Игнатенко А.А. Познать непознаваемое (аль-Газали о рациональном познании трансцендентного ал-гайб) // Средневековая арабская философия: Проблемы и решения. - М.: "Восточная литература", 1998. -С.175-209.; Ерохин А.К. Мистико-теологические идеи философии образования аль-газали в их современном прочтении // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Философские науки. 2009. № 4. с. 91-95.; Майсем Аль-Джанаби. Теология и философия ал-Газали. Москва: Марджани, 2010. 242-с.; Хисайнов У. Соотношение теологии и метафизики в философии Мухаммада Ал-Газали: философско-религиоведческий анализ. Дисс. работа, - Душанбе, 2011. - 174-с.

<sup>6</sup> Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. - Тошкент: Фан, 1971. – 233 б. Болтаев М. Абу Али Ибн Сина. Москва: Сампо. 2002; Болтаев М. Ибн Сина – выдающийся философ Средневекового Востока Знание. Москва: 1983; Болтаев М. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. Душанбе: Ирфон, 1965; Болтаев М. Абу Али Ибн Сина – великий мыслитель, ученый энциклопедист. Казан: Мастер лайн, 1999. С.400; Болтаев М. Абу Али Ибн Синонинг фалсафий – ижтимоий таълимоти. Бухоро: Бухоро, 2001; Болтаев М. Шарқнинг буюк мутафаккири. Бухоро: Бухоро: 2006. Болтаев М.Н. Имом Ғаззолийнинг ирфоний таълимоти // Бухоро университети илмий ахборотлари – 2002. № 2 –Б. 2-7.; Наврӯзова Г.Н. Ғаззолийнинг фалсафага муносабати. Фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. 1-китоб. -Б.103-105.; Саломова Ҳ. Ғаззолий ва мезон // Шарқ юлдузи -1996. -№ 5.-Б. 152-156.; Шодиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.) Дис. док. фил. наук. Самарканд: 1993.-240с. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар). Тошкент: ТДШИ, 2010.; Музаффаров Ф.Д. Имом Ғаззолий ва Шарқ перипатетик фалсафаси. Бухоро: Дурдона, 2022. – 232 б. Шарипова О.Т. Абдуҳолик-Ғиждувоний ҳаёти ва маънавий мероси. Илмий монография. 2008. - Бухоро. - 198 б.

**Tadqiqotning maqsadi** Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy ma’naviy-axloqiy qarashlarining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XI-XII asrlar O‘rta va Yaqin Sharqda vujudga kelgan mumtoz arab-musulmon ilm-fani, falsafasi “Oltin davri”i tarixiy-ma’naviy shart-sharoitlar va “Komil inson” timsol (konsepsiya)larini tadqiq etish;

Sharq falsafasida “ustoz-shogird” munosabati va u orqali komillikka erishish masalasini tadqiq etish;

Forobiyning “Fozil inson” haqidagi talimotida aql va baxt muammosini ochib berish;

Ibn Sino falsafasi va uning inson kamolotidagi ahamiyatini aniqlash;

Rasmiy sunniy davlatchilik, islom, shariatning sohta “himoyachi-do‘stlari” kimlar ekanligi, ularni diniy-siyosiy tajovuz, tahdidlardan qat’iy himoya qilish zarur bo‘lganligini ochib berish;

G‘azzoliyning “Laduniy ilm” risolasida fanlar va ularning tasniflanishi hamda komil insonni shakllantirishdagi o‘rnini asoslab berish;

Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy merosining ma’rifatli jamiyat, Uchinchi Renessans poydevorini qurishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obekti** sifatida Forobiyning Risolat fi al-aql (Aql haqida risola), Ibn Sinoning “Donishnoma”, G‘azzoliyning “Laduniy ilm” risolalari tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy asarlaridagi komil insonni tarbiyalashga oid qarashlar mohiyatini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, analiz va sintez, dialektik, germenevtik, qiyoslash, taqqoslash va umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Farobiyning “fozil odamlar shahri” konsepsiyasida inson uchun o‘z davrining ruhiyatiga mos keladigan gumanistik qarashlar tizimini ishlab chiqilganligi, inson tabiatini, uning hayot mazmunini, olamdagi o‘rnini, jamiyatdagi rolini ko‘rib chiqish chegaralari kengaytirilganligi, insonning intellektual rivojlanish darajasini ham tug‘ma, ham orttirilgan shaxsiy fazilatlar bilan bog‘lagan holda har bir insonning o‘ziga xosligi va mustaqil qadriyatini e’tirof etilgani asoslab berilgan;

Ibn Sino qarashlarida shaxs axloqiy kamolotida inson o‘z nuqson va kamchiliklarini aniqlashi, kamtarlik, jasorat, shahvat, g‘azabni tarbiyalash va nifoqni engish kabi ruhiy quvvatga bog‘liq bo‘lgan axloqiy fazilatlarga donishmandlik asosida erishish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish tamoyillari muhim asos ekanligi isbotlangan;

Imom G‘azzoliyning “komil inson” loyihasida sog‘lom islomga asoslanish, shariatni inqiroz va bo‘hrondan olib chiqish, nisbiy barqarorlik, sobitlik, qayishqoqlik, ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy bardoshlilik kabi tamoyillar asosida islom madaniyati, sivilizatsiyasi, ilm-fani va falsafasini rivojlantirish hamda mujohada, muroqaba, yaqiyn, shikasta-nafslik, pok qalb, basirat va fahm-idrok kabi komil inson fazilatlarini muhim rol o‘ynagani ochib berilgan;



Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliyning komil inson haqidagi ta’limotlarida ilgari surilgan ilm-fan, falsafa, yangi ilmiy dunyoqarash g‘oyalari, ratsionallik va insonparvarlik tamoyillari, ijodkor-yaratuvchi, faol inson kabi ijtimoiy fazilatlar zamonaviy barkamol shaxsning inson oliy qadriyat, mas’uliyatni anglash, va ma’rifiy jamiyatni shakllantirishga uyg‘un ekanligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

inson kamoloti uchun nafs, qalb va ruh tarbiyasiga maxsus e’tibor qaratish, uni sog‘lomlashtirish, u orqali har bir shaxsning “men” lik tuyg‘usini to‘g‘ri shakllantirish ilmiy-falsafiy jihatdan asoslangan;

“inson tushunchasi” tarixiy-falsafiy yondashuv asosida tadqiq etilgan, unga yangicha ta’rif va tavsif berilgan;

Farobiy, Ibn Sino va G‘azzoliylarning ma’naviy merosidan ijtimoiy fanlar, xususan falsafa, ijtimoiy hayot va din, Naqshbandiya tariqati asoslari, ma’naviyatshunoslik, kasbiy ma’naviyat kabi fanlar o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullarining to‘g‘ri tanlanganligi va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan chiqarilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy taraqqiyot va barkamol avlod tarbiyasi uchun buyuk allomalarning madaniy-ma’naviy hamda ilmiy-nazariy merosini tadqiq etishda, islom dini, ilohiyoti va falsafasi mohiyatini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, zamonaviy yoshlarda intellektual fazilatlarni, ma’naviy-axloqiy rivojlanishni shakllantirishda nazariy-metodologik asos sifatida, “Ijtimoiy hayot va din”, “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Tasavvuf falsafasi”, “Dinshunoslik” fanlari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farobiy, Ibn Sino va G‘azzoliylarning ilm o‘rganish, poklanish, nafsni tiyish, to‘g‘riso‘zlik, odamiylik, bag‘rikenglik, halol rizq topish haqidagi fikrlari milliy g‘oyani kishilar ongiga singdirishda nazariy manba bo‘lib xizmat qilish bilan birgalikda, insonni o‘zini anglashga va hayotda o‘z o‘rnini topishga, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid profilaktik tadbirlar va ma’naviy targ‘ibot faoliyatida, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining buyuk mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o‘rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish faoliyatida, ommaviy axborot vositalarining ko‘rsatuvlar va media materiallarini tayyorlashda, diniy-ma’rifiy loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliy ta’limotlarida komil inson konsepsiyalarinin tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Farobiyning “fozil odamlar shahri” konsepsiyasida inson uchun o‘z davrining ruhiyatiga mos keladigan gumanistik qarashlar tizimini ishlab chiqilganligi, inson tabiatini, uning hayot mazmunini, olamdagi o‘rnini, jamiyatdagi rolini ko‘rib chiqish chegaralari kengaytirilganlii, insonning intellektual rivojlanish darajasini ham tug‘ma, ham orttirilgan shaxsiy fazilatlar bilan bog‘lagan holda har bir insonning o‘ziga xosligi va mustaqil qadriyatini e’tirof etilganligiga doir xulosalar va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil yanvar-fevral oylarida e’fira uzatilgan “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 20 fevraldagi 01-02-46-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodning ma’naviy olamini boyitishga, mafkuraviy immunitetini oshirishga, islom dini va falsafasi to‘g‘risida, islom dini niqobi ostidagi buzg‘unchi oqimlarning sof islomdan yiroq ekanligi borasidagi ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qilgan;

Ibn Sino qarashlarida shaxs axloqiy kamolotida inson o‘z nuqson va kamchiliklarini aniqlashi, kamtarlik, jasorat, shahvat, g‘azabni tarbiyalash va nifoqni engish kabi ruhiy quvvatga bog‘liq bo‘lgan axloqiy fazilatlarga donishmandlik asosida erishish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish tamoyillari muhim asos ekanligiga doir umumlashmalar va taklif-tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat marazining 2022-2023 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida, jumladan 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining III-yo‘nalishda belgilangan “G‘oya va mavkura masalasi hamda ilm-fan va ma’rifat targ‘iboti”ning 16-bandi “Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, boy ma’naviy va badiiy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ‘ib qilish” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 14 martdagi 113-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida milliy va diniy bag‘rikenglikni shakllantirish, ilm olishga intilishni rag‘batlantirish va undash, axloqiy tarbiyani rivojlantirish hamda tajovuzkor radikal g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qilgan;

Imom G‘azzoliyning “komil inson” loyihasida sog‘lom islomga asoslanish, shariatni inqiroz va bo‘hrondan olib chiqish, nisbiy barqarorlik, sobitlik, qayishqoqlik, ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy bardoshlilik kabi tamoyillar asosida islom madaniyati, sivilizatsiyasi, ilm-fani va falsafasini rivojlantirish hamda mujohada, muroqaba, yaqiyn, shikasta-nafslik, pok qalb, basirat va fahm-idrok kabi komil inson fazilatlari muhim rol o‘ynaganiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining joylarda o‘tkazilayotgan tadbirlarida, jumladan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5186-son

qaroriga 1-ilova “Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ‘ib qilish” bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazining 2023 yil 2 martdagi 08-17/189-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirishga, milliylik va diniylik o‘rtasidagi uyg‘unlik mohiyatini keng targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

Farobiy, Ibn Sino va Imom G‘azzoliyning komil inson haqidagi ta‘limotlarida ilgari surilgan ilm-fan, falsafa, yangi ilmiy dunyoqarash g‘oyalari, ratsionallik va insonparvarlik tamoyillari, ijodkor-yaratuvchi, faol inson kabi ijtimoiy fazilatlar zamonaviy barkamol shaxsning inson oliy qadriyat, mas‘uliyatni anglash, va ma‘rifiy jamiyatni shakllantirishga uyg‘un ekanligiga doir ilmiy yangilik, nazariy umumlashma va amaliy takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106-son “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi” (2017-2020 yy) mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 13 martdagi 04/11-1373-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlarni ajdodlar ma‘naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga hamda falsafa tarixiga oid darsliklarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bobxulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XI-XII asrlar O‘rta va Yaqin Sharqda tarixiy-ma’naviy shart-sharoitlar va “komil inson” muammosi”** deb nomlanib, O‘rta, Yaqin Sharqdagi tarixiy-ma’naviy muhit va “komil inson” timsol (konsepsiya)lari, Sharq falsafasida “ustoz-shogird” munosabati va u orqali komillikka erishish masalalari hamda o‘rta asrlarda “komil inson” tushunchasining me’yorlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada islom dini namoyandalari Muhammad payg‘ambar (s.a.v) ni barchaga namuna, bekamu-ko‘st, axloqan pok, kamtar va hokisor, sabr-toqatli, sofdil va bilimdon inson deb bilgani, turli diniy manbalarda, xususan hadislarda, olimlarning tadqiqotlarida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.)ning yaxshi sifatleri, yuksak ahloqi, halol va pokligi, o‘zgalarga, g‘arib va muhtoj beva-bechoralarga g‘amxo‘rligi, zohiriy va botiniy bilimlarni bekamu-ko‘st idrok qilishi va boshqa fazilatleri haqida ma’lumotlar beriladi. Taniqli turk olimi Mahmud As‘ad Jo‘shon Muhammad payg‘ambarning zavjalari Oyshaning fikrlariga tayanib, ul zot axloqini Qur‘oni karim bilan qiyoslaydi. “Qur‘oni karimning barcha oyatlari ifodalagan, ko‘rsatgan g‘oyalarni, maqsadlarni maxkam ushlagan, amalda qo‘llab, haqiqatan hayotga tatbiq etgan bir ison edilar Hazrati Payg‘ambarimiz”<sup>7</sup>.

“Komil inson”ning sifatleri avvalo, Allohning o‘zida 99 go‘zal “Asmoi husna” ismlarida ifodalanuvchi, payg‘ambarlar, Rasulilloh-s.a.v.m.- hayoti, shaklu-shamoillari, go‘zal so‘z-marhamatlari, Sahobai chahoriyor bosafolar, aziz-avliyolar o‘git, pandlari, mislsiz badiiyyat, ilm-fan, falsafiy tafakkur daholari merosi, badiiy-ahloqiy, siyosiy tafakkurning ko‘plab buyuk shaxsiyatlari, mutafakkirlari, ularning durdona asarlari hikmatleri, qolaversa, xalq orasida yetishib chiqqan dono hikmat sohiblari qoldirgan maqol, matal, topishmoq, odobnoma, pandnomalarida, shuningdek, xalq og‘zaki adabiyoti bosh qahramonlariga aylanib ketgan - Go‘ro‘g‘li va uning Chambil Eli qirq bahodir, qahramon yigitleri, Alpomish-Boy bohra, Alp Manas, “Tohir va Zuhro”, “Yoriltosh” kabi xalq ertakleri, epik dostonlarida kuylab kelgan mardlik, jo‘mardlik, haqiqatgo‘ylik, jasurlik, qahramonlik, fidoiylikleri, xalq, millat, davlatchiligimiz, dinimiz asoschilari, quruvchilari - Qoonlar, xonlar, beklar, biylar, yani hukmdorlar, podshohlar, amirlar, dono vazir, kotib, maslahatchilar, dinimiz rahnamolari, ilmi irfon sohiblari, aziz-avliyolar, Piri-Murshidlar, odil qozilaru, bobarakot ishbilarmandlar-muhassil siymolarida “Komil inson” tugal qiyofasi, ijobiy va samarali, qiyomiga yetkazib tariflab berilgan. Ular bilan bog‘liq xalq og‘zida yuradigan tasavvurlar, nodir asarlar, topqir va zukko naqlar doimo bor edi va ular to‘g‘ri yo‘l - Hidoyat yo‘lini ko‘rsatar, haqiqiy komillikka yetaklab, undab kelar edi va hozir ham shunday.

Mumtoz o‘rta asr arab-musulmon jamiyati, sivilizatsiyasi barq urib, gullab-yashnagan IX-XI asrlardagi “oltin davr”da umuminsoniy erkinlik, birdamlik qadriyatlari, barcha xalq, millat, elat, dinlar hamkorligi, ilm-fan, falsafa, inson aqli, irodasi, ishbilarmonligi keng urf bo‘lgan, rag‘batlantiriladigan, odamning ijtimoiy mavqei, toifasi, nufuziga qarab emas, umuminsoniy oqilonalik, topqirlik, qadrlash sifatleriga qarab tez mashhur bo‘lib ketar edi. Bunday siyosiy-mafkuraviy erkinlik,

---

<sup>7</sup> Махмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. - Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 131.

qulay sharoitlardan foydalanib, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga erishgan ilk islom xalifalari davrida (660-750 yillarda asosan xorijiyalar, qarmatlar), keyinchalik, Muaviyya xalifalari davrida (754-870 yy) shiyalar, abbosiylar da’vatchilari, tag‘ibotchilari, masalan, Abu Muslim va boshq.), Abbosiylar davrida (870-1258 yillarda, avval abbosiylar da’vatchilari, keyinchalik esa, asosan, shiy’a-zaydiy-kaysoniy, shiy’a ismoiliylar, botiniy-ta’limiylar) faollik ko‘rsatgan va ularning Oxirat kunigacha yashirin qoladigan “Mas’um Imomlari” ular nazdida, talqinlarida “komil inson” siyomosini ifodalari edi.

Farobiy, Ibn Sino, Imom G‘azzoliy mumtoz o‘rta asr arab-musulmon davlati, jamiyati, sivilizatsiyasi ana shunday juda katta diniy, manaviy-mafkuraviy tajovuz, tahdidlari yoppasiga ko‘tarilgan - “ichdan zaif, tashqi ko‘rinishiga ko‘ra esa, qudratli, zebi-ziyatga ko‘milgan”, nobarqaror vaziyatda maydonga chiqqan edilar.

Dissertant fikricha, xalifalik davlati markaziy mintaqalaridagi mazkur diniy-mafkuraviy oqimlar, mazhablar, g‘uluchilar, rasmiy sunniy islom, shariat kalom maktablari, tasavvufning turli, son-sanoqsiz oqim, maktab va buyuk shaxsiyatlarini tarafdorlarining har biri o‘z “Masum Imomi”, piri-murshidlarini, mashshoiyyunlar va tabiiyyunlar oqimlari o‘z darg‘alari, ularning nomlari va amollarini “komil inson”likning oliy namoyon etilishi, isboti deb bilar edilar. Barcha diniy ta’limotlarda Alloh birinchi ustoz sifatida bo‘lsa, payg‘ambar va nabiyalar ularning bilimlarini kishilarga yetkazuvchilar sifatida yuritiladi. Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” risolasida ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlarda shaxs, jamiyat, bilim, turmush tarzi va qadriyatlar tizimi haqidagi qarashlarining amaliy timsolini topishga harakat qilgan. Farobiy uchun ibratli shaxs, ideal va ustoz shahar hukmdori, ezgu fazilatlariga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan imom edi. Imom ilm targ‘ibotiga mas’ul bo‘lishi, o‘zi ham ilmni sevishi, ham ustoz, ham shogird bo‘lishi talab qilingan<sup>8</sup>.

Dissertatsiyada dunyoviy va diniy ilmlarning ancha keng rivojlanganligi, xalqaro, mintaqaviy ilmiy-ijodiy erkinlik ruhi, mumtoz mutafakkirlar zukkolik bilan topib, ifodalay olgan “arab hayotbaxsh hurfikrliligi” ruhi umuminsoniy ko‘lamdagi Sharq hayotbaxsh hurfikrliligi, Oqsoy Sharqdagi Saddi Chindan to obod va ma’mur dunyoning olis, juda avloq bir chekka mintaqasi hisoblangan Mag‘ribdagi Andalus, Sevilya kabi o‘lkalargacha bo‘lgan juda katta yagona “oikumena”<sup>9</sup> paydo bo‘la boshlaganligi ta’kidlanadi.

Dissertant fikricha, siyosiy hokimiyat, mafkura buhroni, tanazzuli yetmaganidek, birgina Bag‘dodning o‘zida mumtoz arab-musulmon jamiyati, davlati, xalifalikni ichki diniy-mazhabiy larzaga keltira boshlagan nizo, to‘qnashuv, qo‘zg‘olonlar avj olib, hatto ijtimoiy-ma’naviy portlashlar yuzaga kela boshlagan va bundan foydalangan bid’atchi ismoiliylar mazhabi qudratli Abbosiylar saltanatining qoq belida “Tog‘ silsilari ustida vujudga kelgan” o‘z davlatlarini qurib bo‘lgan va xalifalik hokimiyatini o‘zlari istagan kuyga sola boshlagan va ma’naviy jihatdan eng xavfli jihati “Jannat” va “Do‘zax”, oxirat,

<sup>8</sup> Сейтахметова Н.Л. Проблема Камал (ун) в философии Абу Насра аль-Фараби // Наследие аль-Фараби и мировая культура: материалы Международного Конгресса Наследие аль-Фараби и мировая культура. 28–29 сентября 2000. – Алматы: Компьютерно-издательский центр ИФИП МОН РК, 2001. – С. 210.

<sup>9</sup> Ўзлаштирилган дунёнинг бир қисми.

arosat, pulsirotni, yani Yavm-al-qiyama, undagi “qayta tirilish” jazolarini mutlaq ko‘pchilik omi xalq ommasiga, go‘yo ochiq namoyish eta boshlagan asosiy ko‘pchiligi adashish-zalolat yo‘liga kirgan xoslar dini, shariat, tasavvuf vakillari zimdan ular tomon o‘ta boshlagan edi<sup>10</sup>.

Dissertatsiyada zamonning eng ilg‘or falsafiy talimotlarini ilgari surgan mashshoiyyunlar - Farobiy, Ibn Sino, Ibn Miskavayh, Umar Hayyom va ularning maslakdosh-izdoshlari, hamda ittifoqchisi bo‘lgan tabiiyyunlar - Jobir, Eronshahriy, Roziy, Beruniy kabi ilg‘or fikrli, Xorazmiy, Farg‘oniy kabi o‘nlab maslakdosh izdoshlarining diniy-falsafiy dunyoqarash, siyosiy masalalarda islom, shariat yo‘lidan emas, balki, o‘zlarining asl ma‘naviy ustozlari bo‘lgan qadimgi Yunon - Dahriyyunlari ortidan ketib qolishlariga imkon berganliklari ta‘kidlangan. Barcha asosiy fundamental masalalar bo‘yicha “islom dini, shariat asoslariga zid, ularning darz ketishiga yo‘l ochadigan” 20 ta fundamental ilmiy-nazariy masalalarni qo‘yish, talqin etishda kechirib bo‘lmaydigan “buzg‘unchiliklari” (g‘ulular)ga sabab bo‘lganliklarini har tomonlama, mukammal, mufassal isbotlashda o‘zlarining ko‘rsatganliklarini, yani, eng muhim universal diniy-falsafiy dunyoqarash masalalari:

- 1) Olam va uning qonunlarining azaliy, buzilmas ekanligini e‘tirof etishda;
- 2) Olloh Taoloning “Taxti Qamar dunyosi” (bizning hozirgi istilohimizda - “Quyosh sistemasi”) dagi juz‘iy, o‘tkinchi narsa-hodisa, jarayonlarni bilmasligi;
- 3) Oxiratdagi iqba, ajrimlar kabi jazolar jismoniy emas, manaviy ekanligini uqtirishlari - islom, shariat asoslariga darz yetakazuvchi qarashlarni ilgari surganliklari uchun murosasiz, keskin tanqid qilgan edi<sup>11</sup>.

Dissertant fikricha, “kamolotga erishish muammosi doirasida “muallim va tolib” - “ustoz - shogird” nazariyasi paydo bo‘ladi. Bu muammo Qur‘onning muqaddas matnlaridan kelib chiqadi, bu yerda Muhammad payg‘ambarga “o‘qing” da‘vati dastlab “ustoz - Xudo, shogird - inson” munosabatlarini belgilab qo‘ygan. Mutasavviflar bu ta‘limotni irratsional tafakkur doirasida ishlab chiqqanlar. Komillik deganda mavjud bo‘lgan hamma narsa to‘g‘risida o‘zlashtirilgan, to‘liq bilim, qolaversa, komil inson oddiy odamga yetib bo‘lmaydigan yashirin ilmlarga ega bo‘lishi tushunilgan”<sup>12</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Abu Nasr Farobiy va Abu Ali Ibn Sinoning “Komil inson” to‘g‘risidagi ta‘limotlari**” deb nomlanib, unda Farobiyning “fozil inson” haqidagi talimotida aql va baxt muammosi, Ibn Sino falsafasi va uning inson kamolotidagi ahamiyati kabi masalalar tahlil etilgan.

Dissertatsiyada aql va baxt muammolari Farobiy falsafasining asosiy ob‘ektlaridan biri ekanligi ta‘kidlanadi. Arastu “Kitob un-nafs”da zikr etgan aqlga kelsak deydi Farobiy, u to‘rt qismga bo‘linadi: aql bil-quvva – quvvatdagi aql, aql

<sup>10</sup> Человек как философская проблема: Восток - Запад / (отв. ред. - д-р филос. наук Н. С. Кирабаев). - Москва: Издательство Университета Дружбы Народов, 1991. - С. 96.; Ибрагим. Т. К. Суфийская концепция «совершенного человека» / Т. К. Ибрагим. Калам. - С. 62-76.

<sup>11</sup> Абу Хамид Газали. Избавляющий от заблуждения. / Перевод с арабского. А.В.Сагадеева // Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII - XII вв. - Москва: Наука, 1960. - С. 222.

<sup>12</sup> Сейтахметова Н.Л. Проблема Камал (ун) в философии Абу Насра аль-Фараби // Наследие аль-Фараби и мировая культура: материалы Международного Конгресса Наследие аль-Фараби и мировая культура. 28-29 сентября 2000. - Алматы: Компьютерно-издательский центр ИФПИ МОН РК, 2001. - С. 211.

bil-fi'l – fe'ldagi aql, aqlu mustafod – o'zlashtirilgan aql va al-aql ul-faol – faol aql<sup>13</sup>. Faol aql, Aristolisning “Kitob un-nafs” asarining uchinchi maqolasida zikr etilgan bo'lib, u moddada bo'lmagan qandaydir bir farqli surat (suratu muforiqa) bo'lib, uning asli emasdir. U aql bil-fe'lning bir turi bo'lib, aqlu mustafodga juda yaqindir<sup>14</sup>. Ammo “Kitob an-nafs”da bayon etilgan faol aql mavjud va zohir. Faol aql doim ham faoliyatda bo'lmaydi. Balki, u ba'zan ishlab va ba'zi vaqt ishlaymaydi<sup>15</sup>. Faol aql moddalarga shakl beradi, so'ng uni o'rganib farqli bo'lgan narsaga (muforiqa) asta sekin yaqinlashishni boshlaydi, toki aqlu mustafod hosil bo'lguniga qadar. Shunda unda inson substansiyasi (javhar ul-inson) yoki inson paydo bo'lishi boshlanadi. U bilan javharlangan narsa faol aqlga yaqinlashadi. Bu eng saodatning chegarasi va hayotning oxiridir va bu inson oxirida hosil qiladigan narsadir<sup>16</sup>.

Fan tarixida uzoq vaqt davomida aql va oqilona fikrlash falsafaning asosiy va yagona maqbul asosi ekanligiga ishonishgan va ratsional tafkkur uslubi butun boshli falsafaning eng rivojlangan cho'qqisi, deb hisoblangan. Farobiy qarashlarining o'ziga xos jihati shundaki, insonparvarlik, insonning shaxs sifatidagi mutlaq qadriyatlarni murosasiz tan olishga asoslanganligidadir. Uningcha, shaxs – olamning markazi bo'lib, komillikka intilishi, komillikka erishish uchun ko'p o'qishi, go'zal xulq-atvorga ega bo'lishi lozim. Uning baxt-saodat va kamolot haqidagi maqsadini o'z falsafasining g'oyasi sifatida qabul qilish bilan birga, uni islomiy ta'limot va tushunchalar bilan hamohang qildi. Yunoniy manbalarning ma'qul keladigan m'nolarini diniy rivoyatlarga tadbiq qilish bilan yangi axloq poydevorini vujudga keltirdi. Unga binoan, “u jahonda” (oxiratda) ko'zda tutilgan narsalardan ko'ra, “Bu jahonda” amalga oshirish mumkin bo'lgan ishlarga diqqat e'tibor qaratildi<sup>17</sup>.

Dissertant fikricha, Farobiy uchun baxt-saodat faol aqlning eng yaqin bosqichiga shiddat bilan yetishishdir<sup>18</sup>. Saodat inson ruhining shunday kamolot vujudiga erishishidirki, bu joyda ruh uchun moddiy tayanchga ehtiyoj qolmaydi. Bunday martabada har qanday jsmdan tashkil topgan ashyolar ham o'z moddiy o'zagidan ajralib, undan abadiy mahrum holda, doimiy qoladilar. Bunday martabali joy faol aql maskani bo'lib, unga faqat irodali faoliyat orqaligina erishiladi. Baxt-saodat o'z mohiyatiga ko'ra, shunday xayrli va matlub narsadirki, inson undan boshqa yoqimliroq va ulug'vorroq narsani qo'lga kiritishi mumkin emas. Ammo, har qanday holat va bosqichda ham inson ruhiyati avj nuqtasi va faoliyatining nihoyasi uning tug'ma vujudidagi quvvatga bog'liqdir. Alloma fikricha, baxt-saodat xayrli ishning o'zigina bo'lib, har bir inson erishishi mumkin

---

<sup>13</sup> Ал-Форобий, Абу Наср мухаммад бин Муҳаммад. Рисолату фил-ақл. / М.Буиж таҳрири остида. - Байрут, ал-Матбаъа ал-Косуликья. 1938. - Б. 13.

<sup>14</sup> Ал-Форобий, Абу Наср мухаммад бин Муҳаммад. Рисолату фил-ақл. / М.Буиж таҳрири остида. - Байрут, ал-Матбаъа ал-Косуликья. 1938. - Б.24-25.

<sup>15</sup> Ал-Форобий, Абу Наср мухаммад бин Муҳаммад. Рисолату фил-ақл. / М.Буиж таҳрири остида. - Байрут, ал-Матбаъа ал-Косуликья. 1938. - Б.32.

<sup>16</sup> Ал-Форобий, Абу Наср мухаммад бин Муҳаммад. Рисолату фил-ақл. / М.Буиж таҳрири остида. - Байрут, ал-Матбаъа ал-Косуликья. 1938. - Б. 31.

<sup>17</sup> Фаробий. Рисолат фи ал-ақл (Ақл ҳақида рисола). - Байрут. 1939. – Б. 31.

<sup>18</sup> Фаробий. Китоб ал сиёсат ал-мадания (Шаҳар сиёсати ҳақида китоб). / Фавзи нажжор таҳрири остида. - Байрут, 1969. – Б. 36.

bo‘lgan maqsadlarning eng ulug‘idir. Alloma baxt-saodatni faqat nazariy tafakkurga ega bo‘lgan quvvat egasigina idrok eta oladigan aqliy kamolot turi, deb hisoblaydi, zero baxt tushunchasi, aqliy tafakkur orqaligina ma‘lum bo‘lib, uning afzalligini hech bir lazizroq va jismoniy ehtiyojga xos narsa bilan solishtirib bo‘lmaydi. Boshqacha ta‘bir bilan aytganda, Farobiyning nuqtai-nazaricha, mohiyatan baxt-saodat aqliy idrokka aloqador bo‘lib, gapiruvchi quvvat jihatidan aqliy amalga bog‘liqdir va shu bois unga faqat aql yordamida erishish mumkin.

“Baxt, Farobiyning so‘zlariga ko‘ra, o‘zida qudratli integratsiya qiluvchi kuchga ega. Sharqning Birinchi muallimi yozgan barcha narsa, uning turli bilim sohalariga oid ko‘plab risolalari yagona asosiy motiv bilan singib ketgan bo‘lib, ular oliy ezgulik – insoniy saodatga intilish bilan uyg‘un bog‘langan. Baxt ezgulik, insonning maqsadi, barcha komillik tojini o‘zida mujassamlashtirgan Birinchi Zotga borib taqaladigan asosiy kategoriyalar orqali belgilanadi”<sup>19</sup>, “...baxtni axloqning asosi deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki u yaxshilik va yomonlikni farqlashga befarqdir”<sup>20</sup>.

Dissertant fikricha, Farobiyning aql va baxt muammosini hal etishi uning fazilatlar haqidagi tushunchasini belgilab beradi. Farobiy fikricha, haqiqiy fazilat insonning komillikka erishish qobiliyati bilan bog‘liq. Uningcha, fazilatlarga ta‘lim berish, tarbiyalash, ishontirish kabi turli usullar bilan erishiladi. Ularning qo‘llanilishiga ko‘ra, Farobiy odamlarni xalq, omma va olimlarga ajratadi. Olimlar ishonchli dalillar orqali fazilatlarni o‘zlashtiradigan tanlangan kishilardir. Ular haqiqiy ilmning yagona manbai hisoblanadi. Alloma o‘rab turgan tevarak-atrofdagi voqelikni xulqning shakllanishiga ta‘sirini etirof etib, insonga xos bo‘lgan ichki quvvatga e‘tiborini qaratadi, ya‘ni insonning iroda kuchini tan olishga asoslangan holda o‘zini-o‘zi shakllantirishini uqtiradi. “Inson erkinligi uchun faqat aql-idrokning o‘zi yetarli emas, kuchli iroda ham zarur. Sog‘lom fikrga va kuchli irodaga ega bo‘lgan inson shunga loyiq erkindir”<sup>21</sup>.

Dissertatsiyada Farobiy inson uchun o‘z davrining ruhiyatiga mos keladigan gumanistik qarashlar tizimini ishlab chiqqanligi ta‘kidlanadi. U birinchilardan bo‘lib inson tabiatini, uning hayot mazmunini, Olamdagi o‘rnini, jamiyatdagi rolini ko‘rib chiqish chegaralarini kengaytirdi. Insonning intellektual rivojlanish darajasini ham tug‘ma, ham orttirilgan shaxsiy fazilatlar bilan bog‘lagan holda, har bir insonning o‘ziga xosligi va mustaqil qadriyatini e‘tirof etdi. U tomonidan yaratilgan “komil inson”, “fozil odamlar shahri” konsepsiyalari Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari o‘rta asr falsafasining keyingi vakillariga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi.

Dissertant fikricha, axloq masalalarini amaliy falsafa ob‘ektiga aylantirgan Ibn Sino deyarli o‘zining barcha asarlarida axloqqa maxsus e‘tibor qaratgan. U ushbu mavzuda metafizikaga doir tushunchalari bilan islom asoslarini sintez qildi. Axloq ilmida asosiy maqsad nafsni poklamoq. Ibn Sinoning axloq falsafasi

---

<sup>19</sup>Соловьева Г.Г.Учение аль-Фараби о счастье в контексте современногo аксиологического дискурса // Мир ценностей аль-Фараби и аксиология XXI века. – Кн. 2. – Алматы, 2006. –Б.14.

<sup>20</sup>Соловьева Г.Г.Учение аль-Фараби о счастье в контексте современногo аксиологического дискурса // Мир ценностей аль-Фараби и аксиология XXI века. – Кн. 2. – Алматы, 2006. –Б.12.

<sup>21</sup>Дао-дэ-цзин. Книга пути и благодати. (Серия Антология мудрости). – М.: Эксмо, 2005. – Б.92.



ratsional xususiyatga ega. Alloma mulohazalariga ko‘ra, bashariy nafsning eng oliy maqsadi faol aql bilan birlashish natijasida fizik olamni bilish va ruhini poklash zaruriydir. Olamda va jismlarning tashqarisidagi yomonliklarning aksariyati yakuniy maqsad “haqiqiy baxt”ga erishish yo‘lida to‘siqlardir<sup>22</sup>. Natija e‘tiboriga ko‘ra, faylasuf haqiqiy va mutlaq baxt bu dunyoda emas, o‘limdan keyin keladi, deb hisoblaydi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Ibn Sinoning axloqiy qarashlari uning fundamental asari “Kitob ash-shifo” va kichik risolalarida tadqiq qilinadi. Aristotelning izdoshi hisoblangan alloma bu qarashlar tizimida ham o‘z o‘rnini belgilay oldi. U Aristotelning kichik va ixcham shaklga ega falsafiy risolalarini tahlil qilish asnosida axloq fanining asosiy tamoyillari va kategoriyalarini belgilab berdi. Mutafakkir faylasuf axloqni ezgu fazilatlarini shakllantirishni tartibga soluvchi amaliy fan deb hisoblab, nazariy kuchdan farqli o‘laroq ilmlarning o‘ziga xos rivoji, amaliy kuchning fazilatlar asosida rivojlanishini, bularning asosiylari sifatida iffat, jasorat va hikmatni ko‘rsatadi. Alloma fikricha, ularning har biri ruh kuchlaridan biriga o‘zaro bog‘liq. Iffat ehtiros kuchi bilan, jasorat – ta’sir kuchiga, donolik – kamsituvchi kuch bilan. Adolat ham asosiy fazilatlar toifasiga kiradi, ammo ulardan farqli o‘laroq ular qalbning barcha qobiliyatlariga xosdir. Ularning fazilatlarini bir vaqtning o‘zida adolat fazilatining tarkibiy qismidir<sup>23</sup>. Har bir fazilat o‘z navbatida u bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dissertant fikricha, Ibn Sino o‘zining axloqiy mulohazalarida “Axloqiy shaxs”ning kamoloti axloqiy fazilatlar bilan omuxtalashtirgan. Bu uning ba’zi axloqiy va falsafiy asarlari tahlilida ayniqsa “Risolai ahd” risolasida yaqqol ko‘rinadi. Uningcha, inson qalbining eng yuqori holatga ko‘tarilishi moddiy aqlga, haqiqiy aqlga xosdir. Insonning farishtalar oliy dunyosi bilan qayta birlashish imkoniyati inson qalbining tabiiy va umumiy kamolotidagi eng yuqori bosqichdir. Hajman uncha katta bo‘lmagan “Aql o‘lmi” risolasida mutafakkir axloqiy fazilatlarining tizimli, tartibli tasnifini berishga harakat qiladi. Bu asarda alloma inson qalbining tabiiy kuchlarini ajratish asnosida ularning har biriga o‘ziga xos shaklda ma’nolar berishga harakat qiladi.

Dissertatsiyada Ibn Sino o‘zining “Donishnoma” asarida hikmat tushunchasining mohiyatini kengroq va batafsilroq yoritib bergani ta’kidlanadi. Uningcha, hikmat ikki xil ya’ni mukammal bilim va mukammal harakat, deb ko‘rsatadi.<sup>24</sup> Demak, donolik nafaqat bilimda balki hatti-harakatda ekanligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. Inson va jamiyat orasidagi munosabatlar keng qamrovli bo‘lganligi uchun Ibn Sino shaxs xarakterining jamiyatda bo‘lish kabi xususiyatlarini axloqiy nuqtai-nazardan tahlil nuqtasiga aylantiradi. Insonlarning har bir toifasi bilan, ularning ichki holati va imkoniyatlariga qarab muomala qilish masalalarini ko‘rib chiqadi. Ushbu risolada Allomaning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi muhim omil bu bilim tushunchasi bilan bog‘liq. Alloma inson aql yordamida dunyoni idrok etadi, deydi. Uningcha, “bilim – inson ongi tomonidan narsa va hodisalarni unda xato va xatolikka o‘rin qoldirmaydigan tarzda

<sup>22</sup> Qafarov Anar, Şirinov Aqil. İSLAM FƏLSƏFƏSİ (orta əsrlər-modern dövr). - Bakı: 2019. – B. 166.

<sup>23</sup> Сагадеев А.В. Ибн-Сина. - Москва: Мысль. 1985. – С. 162.

